SOTISH KANALLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA MARKETING TADQIQOTLARIDAN FOYDALANISH	850
Abduxalilova Laylo Tohtasinovna	
MINTAQ IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING O'RNI VA OBYEKTIV ZARURIYATI	857
Achilova Firuza Kurbanovna	
TIJORAT BANKLARINING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASH VA INVESTITSION KREDITLASH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH TAHLILI	862
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
XIZMATLAR SOHASIDA MIJOZLAR BILAN O'ZARO MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA BAHOLASH MEZONLARI	867
Ismailova Ma'mura Eldorovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIL TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA MANBALARI	874
Rustamova Dilsabaxon Djurayevna, Baratov Maxsudali Nazaraliyevich	
KORXONA FAOLIYATIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	881
Xashimova Dilyora Paxritdinovna	
TURIZM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI (DXSH) LOYIHALARINI BOSHQARISHDA ESG VA BMTNING BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI (UNSDG) KONSEPSIYALARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI	888
Masharipov Ravshan Rajabboyevich	



IQTISODIY, MOLIYAVIY, INVESTITSIYA VA SOLIQ SALOHİYATINING O'ZARO BOG'LIQLIGINING NAZARIY XUSUSIYATLARI.....	893
Jurayev Xusan Atamuratovich	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY RISKLAR BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYALARI.....	900
Kadirov Abdumalik Matkarimovich, Abduqodirova Shahzoda Ilhomidin qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINI IQTISODIY-EKOLOGIK JIHATDAN RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	904
Koliyeva Shoxista Qahramon qizi, Barnoqulova Marjona Otabek qizi	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY AKTIVLAR PORTFELLARINI RISK-DAROMAD DILEMMASI ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH (G. MARKOVIS VA J. TOBINNING PORTFEL NAZARIYASI ASOSIDA)	909
Kurbanov Xayrilla	
MAMLAKATIMIZNING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH	915
Mirzayev Rustam Ro'ziyevich	
РЫНОЧНЫЙ СПРОС И РАВНОВЕСИЕ	921
Камилова Наргиза Абдукажоровна, Ашуров Сардоржон Зафаржонович	
XORIJYI DAVLATLARDA AUDITORLIK FAOLIYATINING O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYASI.....	925
Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li	
MARKETING-INTERNET XIZMATLARIDAN FOYDALANGAN HOLDA SAVDO KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	929
Ismoilov Lazizbek Rasuljon o'g'li	
KORXONADA INNOVATSION BOSHQARUV MEXANIZMLARINING MAVJUD MODELLARINING RETROSPEKTIVASI.....	934
Toxirova Gullola Mirkamolovna	
SANOATNI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA TARMOQ KORXONALARI FAOLIYATIGA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING ROLI	940
Ne'matov Shoxruxbek Ma'murjon o'g'li	
TIBBIY XIZMATLARNI MOLIYALASHTIRISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	946
Isroilov Bohodir Ibragimovich, Muhammadiev Ramz Zoirjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING ROLI	952
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ.....	957
Журахонов Шержахон Зафаржонович	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMI, RIVOJLANISHINING TARIXIY EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI HOLATI TAHLILI	962
Raxmonov Azizjon Sadullayevich	
SOLIQQA TORTILADIGAN KO'CHMAS MULKLARNI BAHOLASH TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	970
Musalimov Shuxrat Isamuxamedovich	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASHNI TAKOMILLASHTIRISH BILAN BOG'LIQ BO'LGAN MUAMMOLAR.....	974
Yuldashev Iskandar Abdurashidovich	



O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASHNI TAKOMILLASHTIRISH BILAN BOG'LIQ BO'LGAN MUAMMOLAR

Yuldashev Iskandar Abdurashidovich

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada masofaviy bank xizmatlarini joriy etishga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillar yoritilgan. Unda masofaviy bank xizmatlarini joriy etish jarayonida yuzaga keladigan muammolar ko'rsatib o'tilgan hamda ularni bartaraf etish bo'yicha muallifning yondashuvlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: masofaviy bank xizmatlari, internet sayt, risk, bank texnologiyalari, internet tezligi, moliyaviy xizmatlar.

Abstract. The article highlights internal and external factors affecting the implementation of remote banking services. It outlines the challenges arising during the implementation process and presents the author's approaches to addressing them.

Key words: remote banking services, website, risk, banking technologies, internet speed, financial services.

Аннотация. В статье освещены внутренние и внешние факторы, влияющие на внедрение дистанционного банковского обслуживания. Отмечены существующие проблемы, возникающие в процессе внедрения таких услуг, и представлены подходы автора к их устранению.

Ключевые слова: дистанционные банковские услуги, интернет-сайт, риск, банковские технологии, скорость интернета, финансовые услуги.

KIRISH

Respublikamiz iqtisodiyotini raqamlashtirish sharoitida tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalash amaliyotini takomillashtirish bilan bog'liq dolzarb vazifalardan biri — zamonaviy raqamli texnologiyalarni banklar faoliyatiga joriy etish jarayonini yanada jadallashtirish va uning samaradorligini oshirishdan iborat.

Shu bilan birga, masofaviy bank xizmatlari (internet-banking, mobil banking, QR-to'lovlar, elektron identifikatsiya va raqamli kreditlash xizmatlari)ning kengayib borishi banklar uchun operatsion samaradorlikni oshirish, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash hamda bank xizmatlarining hududiy qamrovini kengaytirish imkonini bermoqda. Ayni paytda bunday xizmatlarni joriy etish va rivojlantirish jarayonida texnologik infratuzilmani mustahkamlash, internet tezligi va barqarorligini oshirish, axborot xavfsizligi talablarini takomillashtirish, shuningdek, mijozlarning raqamli savodxonligini yuksaltirish banklar faoliyatida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bundan tashqari, masofaviy bank xizmatlari bozorida raqobatning ortib borishi tijorat banklaridan innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishni, mijozlar ehtiyojlarini chuqur tahlil qilishni va xizmatlarni tezkor modernizatsiya qilishni talab etadi. Bu jarayonda risklarni samarali boshqarish, firibgarlik holatlarining oldini olish bo'yicha profilaktik choralarini kuchaytirish, mijozlar ma'lumotlarini ishonchli himoyalash hamda raqamli xizmatlar orqali bank barqarorligini mustahkamlash masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli masofaviy bank xizmatlarini joriy etishga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillarni aniqlash, mavjud holatni tizimli tahlil qilish hamda ularni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi davrda bank xizmatlari, ularning rivojlanish evolyutsiyasi hamda bank faoliyatini yanada takomillashtirish masalalari bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, bank xizmatlari bozorida mijozlar ehtiyojlarini aniqlash va qondirish, xizmatlar sifatini oshirish hamda raqobatbardosh mexanizmlarni shakllantirish kabi masalalar ilmiy izlanishlarning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

Bank xizmatlari sohasiga oid nazariy va amaliy masalalar Rossiya olimlari Ye.F. Jukov, O.I. Lavrushin, T.N. Nesterova, A.N. Ivanov hamda fransiyalik iqtisodchi olim S. de Kusserlarning ilmiy izlanishlarida keng yoritilgan. Mazkur tadqiqotlarda bank xizmatlarining iqtisodiy mazmuni, ularning tashkiliy shakllari va bank tizimida xizmatlar ko'rsatish jarayonining samaradorligini oshirish masalalari turli yondashuvlar asosida tahlil qilingan.

B. Kingning "Bank 4.0. Banking faqat banklarda emas, barcha joyda" nomli asarida global beqarorlik kuchayib borayotgan sharoitda banklar faoliyatini tubdan qayta tashkil etish zarurligi, iste'molchilarning raqamli hayot tarziga chuqur integratsiyalashuv hamda bank xizmatlarini ko'p kanalli (multichannel) modeldan yanada soddalashtirilgan va mijoz uchun qulay bo'lgan bir kanalli (single-channel) modelga o'tkazish muqarrar jarayon ekani ta'kidlanadi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda ushbu jarayon, asosan, raqamli texnologiyalarni bank tizimiga integratsiya qilish orqali izohlanadi. Masalan, Philippon raqamli moliyaviy vositalar ta'sirida moliyaviy vositachilik xarajatlari sezilarli darajada kamaygani hamda bu holat bank xizmatlarining ommabopligi va qulayligini oshirganini qayd etadi. Shuningdek, Gomber, Kauffman va Parker tomonidan olib borilgan izlanishlar raqamli transformatsiya banklar faoliyatini nafaqat texnologik jihatdan, balki tashkiliy va institutsional jihatdan ham chuqur o'zgartirayotganini asoslab beradi.

O.I. Lavrushinning fikriga ko'ra, bank — ma'lum turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi muassasa bo'lib, moddiy ishlab chiqarish sohasidan farqli ravishda pul va to'lov vositalari ko'rinishidagi maxsus "tovar"ni yaratadi. Ushbu mahsulotlarga qo'shimcha ravishda banklar asosan pul munosabatlariga asoslangan xizmatlarni taqdim etadi [3]. Mazkur yondashuv bank xizmatlarining iqtisodiy tabiatini tushunishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, World Bank va OECD tomonidan e'lon qilingan xalqaro hisobotlarda bank sektorida raqamli innovatsiyalarni joriy etishning makroiqtisodiy ta'siri yoritilgan. Ushbu manbalarga ko'ra, fintech va proptech kabi zamonaviy texnologiyalar nafaqat moliyaviy xizmatlar ko'lamini kengaytiradi, balki banklar o'rtasidagi raqobat muhitini ham sezilarli darajada o'zgartirib, bank xizmatlarini modernizatsiya qilish jarayonini jadallashtirmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosi bank faoliyatida raqamli iqtisodiyot sharoitida bank xizmatlari amaliyotini tahlil etishda tizimli yondashuvdan foydalanishga asoslanadi. O'tkazilgan tahlil natijalari asosida tijorat banklarida bank xizmatlari amaliyotini tashkil etishning nazariy asoslari hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari batafsil baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Respublikamiz iqtisodiyotini raqamlashtirish sharoitida tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalash amaliyotini takomillashtirish bilan bog'liq dolzarb masalalardan biri — zamonaviy raqamli texnologiyalarni banklar faoliyatiga joriy etish jarayonini yanada jadallashtirish hamda uning samaradorligini oshirishdir.

2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda 36 ta tijorat banki faoliyat yuritmoqda. Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, banklar o'rtasidagi raqobatda mijozlar uchun qulaylik, xizmat ko'rsatish madaniyati, tezkorlik hamda individual yondashuv tobora muhim mezonga aylanmoqda. Shu sababli, mijozlar bank tanlashda nafaqat tariflar yoki mahsulotlar ro'yxatiga, balki bank xodimlari bilan samarali kommunikatsiya, masalalarning tezkor yechim topishi va servis sifati kabi omillarga ham katta e'tibor qaratmoqda.

Bundan tashqari, Markaziy bank tomonidan prudensial me'yorlar va tartibga solish mexanizmlarining amalda qo'llanishi bank tizimining barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, tartibga solishning yagona standartlari banklar faoliyatida xizmatlar tarkibi va operatsion jarayonlarning muayyan darajada uyg'unlashuviga olib kelishi mumkin. Natijada banklar o'rtasidagi farqlanish yangi bosqichga o'tib, raqamli servis sifati, innovatsion mahsulotlar, texnologik yechimlar hamda mijoz tajribasini oshirish kabi yo'nalishlar asosiy raqobat ustunligiga aylanmoqda¹.

Banklarning texnik infratuzilmasini takomillashtirish va O'zbekiston banklarida IT-mutaxassislar salohiyatini oshirish masalasi dolzarbdur. Banklardagi mavjud operatsion tizimlar ko'p hollarda barqaror ishlamaydi, ayrim


¹ <https://anhor.uz/uz/economy/uzbekiston-bank-tizimining-asosiy-muammolari.-birinchi-qism/>



holatlarda uzilishlar kuzatiladi. Mutaxassislar har bir amaliyotni deyarli qo'lda bajarishga majbur. Bu orada esa bank ishida operator tomonidan bajariladigan har bir oddiy amaliyotni avtomat rejimda o'tkazish juda muhim.

Har bir bank o'z muassislari va menejerlarining manfaatlarini hamda malakasini aks ettiradi. Biroq shuningdek, mijozlar bankdan muayyan umidlarga ham ega bo'ladi va o'z talablarini qo'yadi. Universal korporativ boshqaruv tizimlarini joriy etish ushbu muammoni hal qilishning keng tarqalgan usuli hisoblanadi. Markaziy bank korporativ boshqaruv bo'yicha ko'plab normativ hujjatlarni ishlab chiqib, ularni joriy etishga intilmoqda, biroq ushbu hujjatlarning amaliy monitoringi kutilgan darajada emas.


Tadqiqotdan kelib chiqib, raqamli banking bilan bog'liq asosiy muammolar sifatida raqamli bank platformasini boshqarishda malakali kadrlar yetishmasligi, aholining raqamli bank xizmatlari to'g'risida kamroq xabardorligi, aksariyat aholining raqamli banklarga ishonchi pastligi, xakerlik va kiberhujumlardan xavotirlar hamda mijoz tomonidan kiritilgan ma'lumotlarning ishonchliligi kabilar bilan ifodalash mumkin (1-rasm).



1-rasm. Raqamli iqtisodiyot sharoitida raqamli banklar bilan bog'liq muammolar²

Mamlakatimiz bank tizimidagi mavjud muammolarning yechimlari bank siyosatini izchil takomillashtirish, banklardagi real holat va ularning rivojlanish istiqbollarini qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda.

Shunga ko'ra, tadqiqot davomida bugungi bank xizmatlariga aholining munosabatini o'rganish maqsadida so'rovnoma o'tkazildi. Olingan natijalarga ko'ra, avvalo aholining bank xizmatlaridan keng foydalanishi uchun ularni qiziqtirayotgan jihatlarni quyidagicha ifodalash mumkin (2-rasm).



2-rasm. Bank sohasini transformatsiya qilishda depozit-ssuda operatsiyalarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan asosiy elementlar³

So'rovnoma natijalariga ko'ra, bank xizmatlari hamda ularni raqamlashtirish jarayonida quyidagi muammoli jihatlar mavjudligi aniqlangan:

1. Kredit foiz stavkalarining yuqoriligi;
2. Kredit summasini mijoz talabi asosida naqd yoki elektron pul ko'rinishida taqdim etish jarayonini takomillashtirish zarurligi;
3. Onlayn bank xizmatlaridan foydalanish jarayonini soddalashtirish va qulay tizimni shakllantirish lozimligi. Chunki onlayn rejimda foydalanishda muayyan qiyinchiliklar kuzatilmoqda;
4. Banklar tomonidan xizmat ko'rsatish sifati va tezligini oshirish, xodimlarning muomala madaniyatini yanada rivojlantirish zarurligi;
5. Mahalliy hokimlik va boshqa davlat organlari tomonidan bank xodimlariga qo'shimcha vazifalar yuklanishi holatlari mavjudligi;
6. Ayrim bank mobil ilovalaridan foydalanishda noqulayliklar mavjudligi hamda mazkur ilovalarda xizmatlar turlarining yetarli emasligi;
7. Banklarning ish rejimini yanada qulay shakllantirish hamda O'zbekiston Respublikasining "Bank sirlari to'g'risida"gi Qonuni ijrosini mustahkamlash zarurligi. Xususan, omonat mablag'lari bo'yicha axborotlarning maxfiyligini to'liq ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi;

² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



8. Bank mahsulotlari va xizmatlarini reklama qilish darajasini oshirish, shuningdek, ochiqlik (shaffoflik) tamoyillarini yanada kuchaytirish zarurligi;

9. Barcha banklarda onlayn kredit xizmatlarini keng joriy etish va ushbu yo'nalishda raqobat muhitini rivojlantirish zarurligi;

10. Raqamlashtirilgan, qulay va shaffof yagona tizimni shakllantirish ehtiyoji mavjudligi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan hujjatlashtirilgan akkreditivlar vositasida amalga oshirilgan to'lovlarning jami to'lovlardagi ulushi pastligi hamda ochilgan akkreditivlarning mutlaq asosiy qismini ta'minlangan akkreditivlar tashkil etishi milliy to'lov tizimining barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Shunisi xarakterliki, taraqqiy etgan mamlakatlarda cheklar bo'yicha to'lov summasi alohida hisobraqamda deponent qilinmaydi. Biroq shunga qaramay, ushbu mamlakatlarda cheklar bo'yicha to'lov intizomi barqaror ekani kuzatiladi. Bu holat cheklarning sezilarli qismi tijorat banklarining kredit resurslari hisobidan moliyalashtirilishi bilan izohlanadi. Xususan, chek to'lovchining bankiga kelib tushgan paytda to'lovchining joriy hisobraqamida yetarli mablag' bo'lmasa, chek tijorat banki tomonidan overdraft yoki muddatli kredit hisobidan to'lab beriladi.


Respublikamiz to'lov amaliyotida to'lov talabnomasi orqali amalga oshirilayotgan to'lovlarning mavjudligi milliy to'lov tizimining barqaror ishlashiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillardan biri sifatida baholanadi.

E'tirof etish joizki, to'lov talabnomasi shakli bozor iqtisodiyoti munosabatlarining ayrim tamoyillariga to'liq mos kelmasligi mumkin. Buning sababi shundaki, to'lov talabnomasi orqali to'lovi undirilmasdan jo'natilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar summaları to'lanadi. Aslida to'lovi undirilmasdan sotilgan tovarlar kreditga sotilgan, deb baholanishi hamda unga ma'lum foizda qo'shimcha to'lov hisoblanishi lozim. Shu bilan birga, to'lovi undirilmasdan sotilgan tovarlar summasiga tijorat vekseli rasmiylashtirilishi ham mumkin. Respublikamiz amaliyotida esa ushbu amaliyotlar yetarlicha keng qo'llanilmayotgani kuzatiladi.

To'lov talabnomasidan foydalanish jarayonidagi dolzarb masalalardan biri to'lovni solishtirish dalolatnomasi asosida to'lovlarni o'z vaqtida undirish bilan bog'liqdir. Muammoning mohiyati shundaki, ayrim fermer xo'jaliklari xususiy firmalardan tovarlar xarid qilgan bo'lib, to'lovlarni undirish jarayonida ushbu firmalarning ko'pchiligi faoliyatini to'xtatgani turli amaliy qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Amalga oshirilgan tahlillar natijasida Asakabankda aktivlar rentabelligi 2019–2023-yillar davomida past darajada shakllangani, Sanoatqurilishbankda esa mazkur davrda rentabellik ko'rsatkichlarida pasayish tendensiyasi kuzatilgani aniqlandi.

O'z navbatida, tijorat banklarida aktivlar rentabelligi darajasining past bo'lishi sof foydaning brutto aktivlarga nisbatan yetarli darajada shakllanmaganligi hamda sof foyda va jami aktivlar o'sish sur'atlari o'rtasida muvozanatning to'liq ta'minlanmaganligi bilan izohlanadi. Sof foyda miqdorining nisbatan past bo'lishi, fikrimizcha, foizsiz xarajatlarning foizli daromadlarga nisbatan ulushi yuqoriligi bilan bog'liq (3-rasm).



3-rasm. TIF Milliy banki va AT "Asakabank" da foizli xarajatlarning foizli daromadlarga nisbatan darajasi, (foizda)⁴

4 Rasm muallif tomonidan TIF Milliy banki va Asakabankning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan



3-rasm ma'lumotlaridan shaffof va aniq ko'rinadiki, O'zMilliybank va Asakabankda tahlil davrida (2017–2023 yy.) foizli xarajatlarning foizli daromadlarga nisbati yuqori darajada shakllangan. Ayniqsa, Asakabankda foizli xarajatlarning foizli daromadlarga nisbatan darajasi nisbatan yuqoriroq bo'lgan. Mazkur holat Asakabank majburiyatlari tarkibida xorijiy banklardan jalb qilingan kredit resurslari ulushining yuqoriligi bilan izohlanadi.

Amalga oshirilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, TIF Milliy bankida ham, Asakabankda ham tahlil qilingan davr mobaynida (2017–2023 yy.) sof foizli marjaning me'yoriy darajasiga erishish darajasi yetarli bo'lmagan. Shuningdek, Asakabankda sof foizli marjaning darajasi 2023-yilda 2022-yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygani kuzatildi.

Respublikamiz tijorat banklarida regulyativ kapitalning passivlar hajmidagi ulushi bo'yicha pasayish tendensiyasining kuzatilishi ularning raqobatbardoshligini mustahkamlash va moliyaviy barqarorlikni oshirish yo'nalishida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan muhim jihatlardan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli texnologiyalar sharoitida O'zbekiston tijorat banklarini transformatsiyalashni takomillashtirish bilan bog'liq quyidagi dolzarb muammolar aniqlandi:

- zamonaviy raqamli texnologiyalarni [Big Data (ulkan ma'lumotlar), sun'iy intellekt, bulutli hisoblash (cloud computing)] banklar faoliyatiga joriy etish jarayonining yetarli darajada jadallashmaganligi;

- bank xodimlarining raqamli texnologiyalar va innovatsion bank xizmatlari bo'yicha bilim hamda ko'nikmalarini kuchaytirish zarurligi;

- banklarning texnik infratuzilmasini modernizatsiya qilish va O'zbekiston banklarida IT-mutaxassislar salohiyatini oshirish ehtiyoji mavjudligi;

- so'rovnoma natijalariga ko'ra, bank xizmatlari va ularni raqamlashtirish bilan bog'liq quyidagi muammolar mavjudligi aniqlangan: kredit foiz stavkalarining yuqoriligi; kredit summasini mijoz talabi bo'yicha naqd yoki elektron pul ko'rinishida berish imkoniyatlarini takomillashtirish zarurligi; onlayn bank xizmatlaridan foydalanishni soddalashtirish va qulay tizimni shakllantirish ehtiyoji; banklar tomonidan xizmat ko'rsatish sifati va tezligini oshirish, xodimlarning muomala madaniyatini rivojlantirish zarurligi; mahalliy hokimlik va boshqa davlat organlari tomonidan bank xodimlariga qo'shimcha vazifalar yuklanishi holatlari mavjudligi; aksariyat bank mobil ilovalaridan foydalanishda noqulayliklar mavjudligi va undagi xizmatlar turlarining cheklanganligi; banklarning ish rejimini yanada maqbullashtirish zarurligi, shuningdek O'zbekiston Respublikasining "Bank sirlari to'g'risida"gi Qonuni ijrosini kuchaytirish lozimligi; bank mahsulotlari va xizmatlarini reklama qilish darajasini oshirish hamda ochiqlik (shaffoflik)ni yanada mustahkamlash zarurligi; barcha banklarda onlayn kredit xizmatlarini keng joriy etish ehtiyoji va ushbu yo'nalishda raqobat muhitini rivojlantirish zarurligi; raqamlashtirilgan, qulay va shaffof yagona tizimning yetarli darajada shakllanmaganligi;

- respublika tijorat banklari tomonidan hujjatlashtirilgan akkreditivlar vositasida amalga oshirilgan to'lovlarning jami to'lovlardagi ulushining pastligi hamda ochilgan akkreditivlarning mutlaq asosiy qismini ta'minlangan akkreditivlar tashkil etishi;

- transformatsiya jarayonidagi banklarda aktivlarning rentabellik darajasi pastligi;

- banklarda foizli xarajatlarning foizli daromadlarga nisbatan yuqori darajada shakllanishi;

- respublikamiz tijorat banklarida regulyativ kapitalning passivlar hajmidagi ulushi bo'yicha pasayish tendensiyasi kuzatilayotgani;

- mamlakat tijorat banklarida muammoli kreditlar miqdorining yuqoriligi hamda brutto kreditlarga nisbatan ulushining yuqori darajada shakllanishi;

- banklarda sof foydaning me'yoriy darajasiga (2,0%) erishilmaganligi.

Raqamli texnologiyalar sharoitida mamlakat tijorat banklarini transformatsiyalashni takomillashtirishga qaratilgan quyidagi ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Tijorat banklarining brutto aktivlarining daromadlilikini oshirish uchun zamonaviy bank texnologiyalaridan (raqamli, informatsion va elektron texnologiyalar) kompleks foydalanishni yo'lga qo'yish lozim.

2. Mijozlarning kredit to'lovga layoqatlilikini baholashni takomillashtirish, risklarni aniqlash aniqligini oshirish hamda anderrayterlar faoliyatining samaradorligini kuchaytirish orqali beriladigan kreditlar hajmini oshirish zarur.

3. Raqamli texnologiyalarga asoslangan innovatsion kredit mahsulotlarini (forfeyting, kontokorrent, overdraft, revolverli kredit) kreditlash amaliyotiga joriy etish orqali kredit mexanizmining samaradorligini oshirish maqsadga muvofiq.

4. Bank to'lov majburiyatlari (Bank Payment Obligation) hamda elektron akkreditiv texnologiyalaridan foydalanish orqali tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha to'lovlar hajmini oshirish lozim.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020—2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmoni. QHMMB: 06/20/5992/0581-son, 13.05.2020. URL: <https://lex.uz/docs/-4811025>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston–2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoni. URL: <https://lex.uz/docs/-5030957>
3. Lavrushin, O. I. Bankovskoe delo. Ekspress-kurs: uchebnoe posobie. 2016. 12 s. URL: <https://www.elibrary.ru/>
4. Alikoriev, O. F. Tijorat banklarida moliyaviy xizmat turlarini rivojlantirish yo'nalishlari: i.f.n. dissertatsiyasi. Toshkent: BMA, 2011. 28 b. URL: <https://www.google.com/search?q=Alikoriev+O.F.+Tijorat+banklarida+moliyaviy+xizmat+turlarini+rivojlantirish+2011>
5. Mirsoatov, A. K. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish: avtoreferat. 2021. 13 b. URL: <https://www.google.com/search?q=Mirsoatov+A.K.+innovatsion+bank+xizmatlarini+rivojlantirish+2021+avtoreferat>
6. Philippon, T. The Great Reversal: How America Gave Up on Free Markets. Cambridge: Harvard University Press, 2019. URL: <https://www.hup.harvard.edu/books/9780674237544>
7. Gomber, P., Kauffman, R. J., Parker, C. Financial services and digital transformation. Electronic Markets, 2018. URL: <https://link.springer.com/journal/12525>
8. Speedtest Global Index (internet tezligi bo'yicha global ko'rsatkichlar). URL: <https://www.speedtest.net/global-index>
9. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. To'lov tizimi statistikasi. URL: <https://cbu.uz/oz/statistics/paysistem/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>